«Oddiy» muddatli omonati

Mahsulot pasporti

03.11.2026 yildan amalda

1. UMUMIY SHARTLAR

Turi	Muddatli
Valyuta	Milliy valyuta (UZS), AQSH dollari (USD), Yevro (EUR)
Rasmiylashtirish usuli	Bank filiallarida, mobil ilovada
Eng kam miqdori	500 000 so'm / 100 USD / 100 EUR
Joylashtirish muddati	3, 6, 12 oy
Qo'shimcha mablag'lar qo'yish	Omonat ochilgan sanadan boshlab dastlabki 3 (uch) oy ichida
Qisman yechib olish	Mavjud emas
Foizlar kapitalizatsiyasi	Mavjud emas
Avtomatik uzaytirish	Mavjud emas

2. FOIZLARNI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI

Omonat bo'yicha foizlarni hisoblash mablag' kelib tushgan kunning keyingi kunidan boshlanadi va hisobvaraq yopilishining oldingi kunga qadar hisoblanadi. Omonatni ochishda mijoz foizlarni to'lashning ikki usulidan birini tanlaydi:

- **Muddat yakunida to'lash:** hisoblangan foizlar omonat muddati tugagan kunida asosiy summa bilan birga to'liq hajmda to'lanadi.
- **Har oyda to'lash:** hisoblangan foizlar har oyda to’lab beriladi, omonatning asosiy summasi omonat muddati tugagan kunida to’lab beriladi.

3. FOIZ STAVKALARI (YILLIK)

3.1. Milliy valyutadagi omonatlar (UZS), mobil ilovada rasmiylashtirilganda

Muddat (oy)	3 oy	6 oy	12 oy
Muddat yakunida	16,5%	16,5%	17,0%
Har oyda	16,0%	15,5%	16,0%

Milliy valyutadagi omonatlar (UZS), bank filiallarida rasmiylashtirilganda

Muddat (oy)	3 oy	6 oy	12 oy
Muddat yakunida	16,0%	16,0%	16,5%
Har oyda	15,5%	15,5%	15,5%

3.2. AQSH dollaridagi omonatlar (USD), mobil ilovada rasmiylashtirilganda

Muddat (oy)	3 oy	6 oy	12 oy
Muddat yakunida	X	X	3,8%
Har oyda	X	X	3,5%

AQSH dollaridagi omonatlar (USD), bank filiallarida rasmiylashtirilganda

Muddat (oy)	3 oy	6 oy	12 oy
Muddat yakunida	2,3%	2,8%	3,3%
Har oyda	2,0%	2,5%	3,0%

3.3. YEVROdagi omonatlar (EUR), bank filiallarida rasmiylashtirilganda

Muddat (oy)	3 oy	6 oy	12 oy
Muddat yakunida	0,5%	1,5%	2,5%
Har oyda	0,4%	1,0%	2,0%

4. MUDDATIDAN OLDIN YOPISH SHARTLARI

Omonatni muddatidan oldin yechib olish shartnoma muddati davomida istalgan vaqtda mumkin. Hisoblangan va to‘langan foizlar yillik 0% stavkada qayta hisoblanadi. Avval to‘langan foiz daromadlari omonat qoldig‘i summasidan ushlab qolinadi.

5. OMONAT KAFOLATI

Fuqarolarning banklardagi omonatlari O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq kafolatlanadi. Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi omonatlarini kafolatlash jamg‘armasi bank tizimi barqarorligini ta’minlash bilan birga, aholining 200 million so‘mgacha bo‘lgan omonatlarini qaytarish kafolati hisoblanadi. Agar kafolatlangan holat yuzaga kelsa, omonatlar quyidagi muddatlarda qaytariladi:

- 2026 yil 1 yanvardan — 15 ish kuni;
- 2027 yil 1 yanvardan — 7 ish kuni.